

**XORAZM YIGITLAR RAQSI HAQIDA MULOHAZA**

Baxtiyarov Muhammadali Alisher o'g'li

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali 4-bosqich talabasi

Ismoilova Muxlisa Shuhrat qizi

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm yigitlar raqsi haqida mulohaza yuritilgan. Yigitlar raqsi o'zining baquvvat va erkaklarga xos harakatlar bilan ajralib turishi, ko'pincha erkaklar tomonidan kuch, epchillik va muvofiqlashtirishni namoyish etish uchun ijro etilishi haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, "Masxaraboz lazgi"si, uni ijro etgan xorazmlik raqqoslar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: raqs maktablari, urf-odatlar, epchillik, jangovar xarakter, "Lazgi", "Masxaraboz lazgi"

КОММЕНТАРИЙ О ХОРЕЗМСКОМ МУЖСКОМ ТАНЦЕ

Аннотация: В этой статье обсуждается танец хорезмских юношей. юношеские танцы отличаются энергичностью и мужественностью, часто исполняются мужчинами для демонстрации силы, ловкости и координации. Также упоминается «Клоунский лазги», исполнявший его хорезмские танцоры.

Ключевые слова: танцевальные школы, традиции, ловкость, боевой характер, «Лазги», «Масхарабоз лазги»

A COMMENT ON KHOREZM MEN'S DANCE

Abstract: This article discusses the dance of Khwarezm youths. Youthful dances are characterized by vigor and masculinity, often performed by men to demonstrate strength, agility and coordination. Also mentioned is the "Clown Lazgi," performed by his Khorezm dancers.



Keywords: *dance schools, traditions, dexterity, fighting character, "Lazgi," "Masharaboz lazgi"*

Muhtaram Yurtboshimizning 2020-yil 4-fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 4584-sonli qarorida “Ko‘p asrlik boy va betakror madaniyatimizning ajralmas qismi bo‘lgan milliy raqs san’atining xalqimiz ma’naviyati, badiiy-estetik qarashlarini yuksaltirish, yosh avlodni milliy qadriyat va an’analarimizga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bu esa ushbu san’atni bugungi kunda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlarga mos holda rivojlantirish, milliy raqsning turli yo‘nalish va namunalarini, mamlakatimizning turli mintaqalarida shakllangan mumtoz raqs maktablarini qayta tiklash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazish hamda bu boradagi ta’lim-tarbiya, targ‘ibot ishlarini kuchaytirishni taqozo etmoqda” [1] - deb ta’kidlangan. Mazkur qaror ijrosini sifatli va tizimli ta’minlash, ko‘p asrlik nomoddiy madaniy merosimizni asrab-avaylash, mumtoz raqs maktablarini qayta tiklash va rivojlantirishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmogda. Jumladan, Xorazm viloyatida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filialining tashkil etilganligi, ko‘plab raqqos va raqqosalarning ta’lim olib bu sirli san’at turining sir-sinoatlarini qunt bilan o‘rganib kelayotganligi, yurtimizda qolaversa, butun dunyo miqiyosida tashkil etilayotgan turli xil bayram va tadbirlarda o‘zbek raqs san’atini namoyish etib kelayotganligi fikrimizning isbotidir.

Bizga ma’lumki, yurtimizda Farg‘ona, Qorqaqalpoq, Buxoro, Xorazm va Surxon raqs maktablari o‘z yo‘nalishi, ijro uslubi, harakatlari, liboslari va turlari bilan bir-biridan farqlangan holda xalqimizning qadimiy milliy urf-odat va qadriyatlarimizni tarannum etib kelmoqda. Bu raqs maktablari ichida o‘zining qadiymiyligi va jo‘shqin, o‘ynoqiligi bilan ajralib turadigani Xorazm raqs maktabidir.

Xorazm raqs maktabi an’anaviy o‘zbek raqs shakllarini, xususan, Xorazm xalqining xalq raqsalarini saqlash va targ‘ib qilish bilan mashhur. Xorazm raqs maktabi mintaqaning madaniy merosini raqs orqali o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, ko‘pincha klassik va xalq uslublarini ta’kidlaydi.



Xorazmning raqs an'analari tarixga boy bo'lib, uning o'ziga xos chiqishlari mintaqa folklorini va tarixini aks ettiruvchi turli xil harakatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu raqslar odatda nafis, jo'shqin harakatlar, murakkab oyoq harakatlari va ifodali imo-ishoralar bilan ajralib turadi. Bu o'zgachalik Xorazm yigitlar raqsidan ham yaqqol namoyon bo'ladi. Xorazm yigitlar raqsi – an'anaviy xalq raqsidir. Ushbu raqs o'zining baquvvat va erkaklarga xos harakatlar bilan ajralib turadi, ko'pincha erkaklar tomonidan kuch, epchillik va muvofiqlashtirishni namoyish etish uchun ijro etiladi. Bu Xorazm xalqining madaniy merosining muhim qismi bo'lib, uning tarixi, urf-odatlar va mahalliy g'ururini ifodalaydi.

Xorazm yigitlar raqsi — o'zbek xalqining boy madaniy merosidan biri bo'lib, u asrlar davomida shakllanib, o'ziga xos tarzda rivojlangan. Bu raqs Xorazm mintaqasining boy tarixiy, madaniy va musiqiy an'alarini aks ettiradi. U nafaqat san'at turi, balki xalqning xarakteri, tarixi va dunyoqarashini ifodalovchi vosita sifatida ham qadrlanadi. Xorazm yigitlar raqsi mintaqadagi qadimgi madaniy qatlamlardan ildiz olgan. Xorazm vohasida yashagan xalqlarning diniy marosimlari va urf-odatlar raqs orqali ifoda etilgan. Ushbu hududda qadimda zardushtiylik, keyinchalik islom dini tarqalgan va bu e'tiqodlar raqsning mazmunida va uslubida aks etgan.

Raqslardagi jangovar xarakter: Xorazm yigitlarining kuch-qudratini, jangovar tayyorgarligini va epchilligini namoyon etuvchi harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu raqsning ildizlari qadimgi jangovar o'yinlar va urf-odatlarga borib taqaladi. Raqsda qo'l harakatlari, sakrashlar va turli murakkab qadamlar jangovar ruhni ifoda etadi.

Musiq va milliy cholg'u asboblari: Ushbu raqs an'anaviy Xorazm musiqasi bilan uyg'unlashgan bo'lib, asosan doira, surnay va nog'ora kabi cholg'u asboblari hamrohligida ijro etiladi. Musiqaning tezkor va jo'shqin ritmi yigitlarning kuchli energiyasini ifodalaydi.

Milliy liboslar: Raqs ijro etilishida yigitlar Xorazmga xos milliy liboslarni kiyishadi. Liboslar ko'pincha rang-barang, bezakli va epchillikni ta'minlashga mos ravishda tikilgan bo'ladi. Raqsda yigitlarning kuchli, qat'iyatli va dadil harakatlari



asosiy o‘rinni egallaydi, raqsning ritmi tez-tez o‘zgaradi, harakatlar va ifodalar orqali yigitlarning mardligi va xalqining ma’naviy kuchi namoyon bo‘ladi bu esa uning tomosha qilishga yanada qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Shu o‘rinda, Xorazm vohasida qadim zamonlarda shakllangan va asrlar davomida rivojlanib kelgan Xorazm “Masxaraboz lazgi”si xususida to‘xtalib o‘tishni joiz bildik. Lazgining ushbu turi ibtidoiy jamoa davrida paydo bo‘lib, asrlar davomida shakllanib, rivojlanib, sayqal topib erkaklar tomonidan ijro etilib kelgan. “Qadimda masxarabozlar tomonidan “Ayiq o‘yini”, “Dev o‘yini”, “Maymun o‘yini”, “Ot o‘yini” o‘ynalib kelingani va bu o‘yinlar ko‘pincha niqob kiyib o‘ynalganligi xalqimizga ma’lum. Hozirgi davrda ham ijro qilib kelinayotgan “Qumpishik o‘yini”, “Chorloq o‘yini”, “Yumronqoziq o‘yini”, “Echki o‘yini”, “Qirg‘ovul o‘yini”, juda qadimiy bo‘lib, ularni masxarabozlar musiqa va ashula jo‘rligida o‘ynab taqlid qilinayotgan hayvonlarning xususiyatlarini katta mahorat bilan tasvirlay olganlar”- deb yozadi O‘zbekiston xalq artisti, faxriy professor G. Matyaqubova [2]. Bu raqs xorazmliklarning sevib o‘ynaydigan va tomosha qiladigan o‘yinlaridan biri hisoblanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atidan “masxaraboz” so‘zining lug‘aviy ma’nosiga qaraydigan bo‘lsak, masxara – “ermaklash, mazax, hazil, kamsituvchi, kulgi qiluvchi gapso‘z, mazxaralamoq” so‘zlaridan kelib chiqqanligi aytiladi. Masxaraboz esa tomoshaxonalarda, sayillarda va umuman, xalq ko‘p to‘planadigan maskanlarda tomoshabinlarni kuldiradigan, o‘yinlar ko‘rsatadigan qiziqchi, artist ma’nosida qo‘llanadi. “Lazgi” so‘zi esa qadimgi Xorazmiy tilida “sovqotmoq”, “qaltiramoq” (“shuningdek, titramoq”) kabi ma’nolarini anglatishi esa mazkur raqs turining “Masxaraboz lazgi” deya nom olishiga asos bo‘lgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Vaqt o‘tgan sayin masxarabozlik o‘yinlarining elementlari “Lazgi” o‘yinida aks etib boradi. Buning natijasida esa “Masxaraboz lazgi” vujudga keladi. Ushbu raqsning asosiy harakatlari taqlidchilikka asoslangan. Lazgining ushbu turi biror hayvon, qush, salbiy xarakterdagi odamning tashqi ko‘rinishi hamda xususiyatlariga taqlid shaklida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, badiiy adabiyotlarda “Masxaraboz” obrazi Gyotening “Faust”, V. Shekspirning “Gamlet”, “Qirol Lir” asarlarida ham uchraydi. Bu asarlarda asosan o‘sha davrdagi yuqori



tabaqa vakillarining xatti-harakatlari hajv qilinadi. Bu ayni paytda qaysidir ma'noda masxarabozlarning bajaradigan funksiyasi bir-biriga chambarchas bog'liqligidan dalolat beradi. "Masxaraboz lazgi"sining bir necha asrlardan buyon shakllanib, avloddan- avlodga o'tib, bugungi kungacha yetib kelishida Komiljon Qutlimurodov, Sulton Otaniyozov, Rajabboy Davlatov, Davlatyor Erjanov, Quronboy Sa'dullayev kabi san'atkor ustozlarimizning beqiyos hissasi bo'lganini ham mamnuniyat bilan e'tirof etsak arziydi.

Raqs san'ati ixlosmandlarining bergan ma'lumotlariga ko'ra, "Masxaraboz lazgi" ijrosida o'tgan asrning 50-yillarida xorazmlik mashhur raqqos Sulton Otaniyozov nom chiqargan. U boshiga piyola qo'yib, turli xil taqlidiy harakatlar bilan ijro qilgan.

Xorazm masxarabozlik san'ati o'tgan asrning birinchi yarmigacha o'z mashhurligini yo'qotmagan. Ammo ikkinchi yarmiga kelib tanazzulga yuz tutib boshlagan. Hozirgi vaqtda Xorazm viloyatining Shovot tumanida "Monoq masxarabozlari" nomi ostida faoliyat yuritib kelayotgan folklor etnografik ansambli masxarabozlari tomonidagina ijro etilib kelinmoqda. Bu ansambl o'tgan asrning 80-yillarida marhum Shovotlik masxaraboz Davlatyor Erjanov tomonidan tashkil qilingan. Davlatyor Erjanov Xorazm masxarabozlari maktabining ulkan namoyondalaridan biri bo'lgan.

Bugungi kunda Davlatyor Erjanov orqali avloddan avlodga o'tib kelayotgan bu san'at turini uning sevimli shogirdi "Shuhrat" medali va "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi ko'krak nishoni" sohibi, Quronboy Sa'dullayev davom ettirib kelmoqda.

Quronboy Sa'dullayev yoshligidan madaniyat va san'atga bo'lgan qiziqishi juda katta bo'lgan. "1965-1970-yillari mahallamizda bo'ladigan to'ylarga, sayllarga Masxarabozlar kelar edi shularga havas qilib ustozim Erjanov Davlatyordan masxarabozlik sirlarini o'rganganman. Uyimizda otamning qo'y terisidan bo'lgan qishqi kiyimi bor edi. Bir kuni shuning yengini kasb olib, boshimga kiyib raqsga tushib barchani kuldirdim. Shundan so'ng o'z o'zidan masxaraboz raqslarni ijro qilish qiziqishi paydo bo'ldi. 1988-yilda mahallalar o'rtasida Sayil bayrami munosabati



bilan turli xil musabaqalar uyushtirildi. Unda ustozim Erjanov Davlatyor boshchiligida masxaraboz o‘yinlarini ijro qilib birinchi o‘rinni egalladik. 1989-yilda Andijon viloyatida bo‘lib o‘tgan “Marhabo talantlar” festivalida ishtirok etib, masxarabozlik san’ati bilan “Sartarosh va Usta shogird” raqsini ijro qilib birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdik” – deb xotiralaydi Quronboy Sadullayev.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach milliy qadriyatlar va urf-odatlarimizni qayta tiklash va e‘zozlash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirila boshlandi. Yo‘qolib ketayotgan tarixiy nomoddiy madaniy meroslarimizni asrab qolish, qayta tiklash, ularni kelajak avlodlarga bus-butun holda yetkazish, yoshlar ongiga singdirish, farzandlarimizni Ona vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, manan yetuk va jismonat sog‘lom qilib voyaga yetkazish asosiy tamoyillarimizdan biriga aylandi.

Mustaqillik yillarida Xorazm madaniyati va san’atini yoyish, tarannum qilishda ham Xorazm masxarabozlarining xizmati beqiyosdir. Yurtimizda bo‘ladigan turli bayram va tadbirlarda “Monoq masxarabozalari” tomonidan ijro etiladigan tomoshalar muxlislar qalbidan joy olib kelmoqda. Bu ansamblning dasturida “Hayronman”, “Chaparozi mog‘oldoq”, “Arka bola”, “Sartarosh”, “Po‘rxon”, “Axov polvon va moxov polvon”, “Uylanish”, “Qum pishik”, “Cho‘girma” singari qadimiy asarlar o‘rin olgan.

Bugungi kunda “Masxaraboz lazgi” sini maromiga yetkazib ijro qilib kelayotgan masxarabozlar sifatida Quronboy Sadullayev va shogirdi Otanazar Matyoqubovlar hamda Shovot tumani Madaniyat bo‘limi tarkibidagi “Monoq masxarabozalari” folklor-etnografik ansamblining raqqos yigitlarini ayta olamiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytish o‘rinliki, masxarabozlik san’ati faqat erkaklarga xos bo‘lganligi tufayli “Masxaraboz lazgisi”ni faqat erkaklar ijro qiladi. Bu san’at turini asrash, qayta tiklash, rivojlantirish, ilmiy va amaliy jihatdan chuqur tadbiq etish zarur. Negaki bunday noyob nomoddiy madaniy meros namunasi o‘zbek san’atshunosligini, raqsshunosligini butun dunyoga mashxur qilishda asosiy rol o‘ynaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 4584-sonli qarori
2. G.Matyoqubova, Sh.Eshjonova “Lazgi”. – Xorazm: Urganch, 2017
3. “Nafosat hayotbaxsh qudrat”. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021-yil, 21-avgust.
4. Abdeyeva L. O‘zbekiston raqs san’ati. – Toshkent: O‘zSSR davlat badiiy adabiyot nashryoti, 1960.
5. Abraykulova N.E. Raqs. – T.: “Turon-Iqbol”, 2018.